



## SOTSIOMADANIY TIZIMDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR

**Mahmudova Muslima Ma'rufjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasи sotsiologiya yo'naliishi 2-bosqich 202-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda kechayotgan sotsiomadaniy tizimdagi transformatsiyalarni muhim jihatlari ko'rib chiqildi va yoritildi. Bunda kelajakdagi transformatsiya tendensiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar haqida qisqacha ma'lumotlar kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Transformatsiya, innovatsiya, ijtimoiy – ma'daniy, sotsial, struktura, qadriyat, institut, evolyutsion, globalizatsiya, tendensiya, integralizm.

**Kirish. Transformatsiya** (lot. transformatio — qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) degan ma'nolarni anglatadi. Transformatsiya jarayonlari, ijtimoiy va madaniy tizimlar o'rtasida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonlarning asosiy xususiyatlari, innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va ijtimoiy tuzilmalar o'zgartirishidir. Biroq, bu jarayonlar bilan birga, an'anaviy qadriyatlar va madaniy merosning yo'qolishi kabi tahdidlar ham paydo bo'ladi. O'zbekiston misolida, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalaridagi transformatsiyalar, iqtisodiy o'sishga olib kelsada, ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun, transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish va ularning ijtimoiy-ma'daniy ta'sirini hisobga olish zarur.<sup>1</sup>

Sotsiologik tizimdagi transformatsiya — bu jamiyat yoki uning tarkibiy qismlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, rivojlanishi yoki yangi shakllarga o'tishi jarayonidir. Ushbu jarayon ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Sotsiologik transformatsiya jamiyatning strukturasidagi, qadriyatlar tizimidagi, institutlar va guruqlar orasidagi aloqalardagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Sotsial madaniy tizimdagi transformatsiya - bu jamiyatning madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalari o'zgarishi jarayonini anglatadi. Bunday transformatsiya jamiyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar, me'yorlar, tizimlar va tashkilotlarda yuz beradigan keng qamrovli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Superorganik olamning mohiyatli qadriyatları orasida Sorokin oliv integral qadriyatni ajratib oladi – “ezgulikning haqqoniy cho'qqisi” -

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/>



«Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning ko'rinnmas yaxlit uchligi». «va yaxlit uchlikning har bir a'zosi o'ziga xos individuallikka ega bo'lsada, ulami bir-biridan ajratish mumkin emas...

1. Haqqoniy Haqiqat doim yaxshi va go'zal; haqqoniy Eezgulik doimo haq va go'zal; va sof Go'zallik doimo haq va yaxshi bo'ladi. Bu buyuk qadriyatlar nafaqat bir-biridan ajralmas, balki xuddi bir energiya shakli boshqasiga o'zgargani kabi ular ham bir-biriga aylanish xususiyatiga ham ega».

2. Muallif ta'kidlaydiki: «...yangi shakllanayotgan sotsiomadaniy tuzum din, falsafa, fan, etika, sariatning ixtiyoriy tarzda Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning oliy qadriyatlari integratsiyalashgan tizimiga birlashishini bildiradi».

3. Yuqorida tasvirlangan murakkab tizim Integral jamiyatning asosiy xususiyatlarini ifodalaydi, buni Sorokin sotsiomadaniy tizimdagi inqirozni yengish uchun eng ma'qul tarixiy strategiya deb biladi. Sorokin Integralizmga boijak ijtimoiy tuzumning paradigmal asosi sifatida qaraydi. Lekin Sorokin nafaqat Integral jamiyatni tushuntiradi va uni qurish lozimligini asoslaydi, balki u yanada uzoqroqqa boradi va unga yordam berishi mumkin bo'lgan strategiyani chuqr tahlil qiladi. Uning asosiga - butun olamga altruistik muhabbat g'oyasini yoyishni qo'yadi, uni har tomonlama o'rganishga umrining qolgan so'nggi yillarini, o'zi tomonidan tashkil etilgan ijodiy altmizmni o'rganish bo'yicha Garvard markazida ishlarini bag'ishlaydi.

Bundan tashqari, sotsial madaniy tizimdagi transformatsiya turli omillar tomonidan boshqariladi, jumladan:

1. Texnologik o'zgarishlar: Yangi texnologiyalar jamiyatning turmush tarzini va ish faoliyatini o'zgartiradi.

2. Ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar: Hukumatlar va siyosiy tizimlar o'zgarishi, fuqarolik huquqlari va ijtimoiy tenglikka e'tibor qaratilish.

3. Madaniy evolyutsiya: Madaniy qadriyatlar va urf-odatlar o'zgarishi, globalizatsiya va migratsiya kabi jarayonlarning ta'siri ostida bo'lishi mumkin.

4. Iqtisodiy o'zgarishlar: Yangi iqtisodiy tizimlar, bozorlardagi o'zgarishlar va ish joylarining yangilanishi jamiyatni o'zgartiradi.

Transformatsiya jarayoni ijtimoiy strukturadagi tuzilmaviy va amaliy o'zgarishlarga olib keladi va bu jarayonning maqsadi jamiyatni samarali va barqaror rivojlantirish bo'ladi. Bunday o'zgarishlar ijtimoiy tenglik, madaniy integratsiya, iqtisodiy farovonlik va siyosiy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin.



**Metod va materiallar.** Sotsiologik tizimdagi transformatsiya — jamiyatning turli ijtimoiy strukturalaridagi, qadriyatlar va normadagi o'zgarishlarni ifodalaydigan jarayondir. Bu o'zgarishlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotini qayta shakllantirishga olib keladi. Sotsiologik tizimdagi transformatsiyalar, odatda, jamiyatlarning rivojlanish bosqichlarida, shuningdek, yangi ijtimoiy omillar va texnologiyalarning kiritilishi jarayonida yuz beradi.

Siyosiy o'zgarishlar bilan birgalikda mustaqillikning ilk yillarda iqtisodiy jarayonlar – ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik, inflyasiya – jamiyatning katta qismi maoshlari va nafaqalariga ta'sir qilib, real daromadlarini sezilarli darajada kamaytirdi. Bugungi kunda mazkur ahvol ancha yaxshilandi. Mamlakatimizdagi keyingi ijtimoiy-stratifikatsion jarayonning rivojlanishi, sotsial strukturaning transformatsiyasi iqtisodiy va siyosiy islohotlarning tezligi va yo'nalishiga, shuningdek, mamlakatning sotsiomadaniy xususiyatlariiga bog'liq bo'ladi.<sup>2</sup>

Jamiyatlar o'zgaruvchan va rivojlanayotgan tizimlar sifatida doimiy transformatsiyani boshdan kechiradi. Bu o'zgarishlar turli omillar orqali yuz beradi, masalan, texnologik yutuqlar, iqtisodiy inqiloblar, siyosiy rejimlarning almashinuvi, globalizatsiya va boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Sotsiologik tizimdagi transformatsiyani o'rganish jamiyatni tushunish va rivojlanishning yangi yo'llarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar jamiyatlarning kelajagini shakllantiruvchi asosiy kuchlardan biri bo'lib, ularning ijtimoiy barqarorligi, tengligi va rivojlanish imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

G. Spenserning evolutsion qarashlari Darvinnikidan farq qilar edi. Uning ta'limotida tabiat va jamiyat uyg'unligi o'ziga xos shaklda namoyon bo'ldi. Tabiat, fan, evolutsion qarash va radikal mafkura (*laissez faire*), sotsiomadaniy hodisalarga yondashishda asosiy manba bo'ldi. Bular hammasi Spensertafakkuri tarzining asosini tashkil qildi. Spenserning barcha sotsiologik xulosalari darvinizmga bog'liq boim agan, o'zi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus evolutsiya nazariyasiga tayanardi.<sup>3</sup>

**Sotsiologik tizimning mohiyati.** Sotsiologik tizim — bu jamiyatning barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy institutlarining o'zaro bog'liq va muvozanatli tizimi. Har bir institut o'zaro aloqada bo'lib, bir-birini ta'sir qiladi va o'zgarishga olib keladi. Misol uchun, iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy strukturalarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

<sup>2</sup> Yusupxodjayeva G.B Iqtisodiy sotsiologiya. Darslik – T.:2023. 303 b.

<sup>3</sup> Sotsiologiatarixi. XIX-XX asr. [Text]: o'quv qo'minmit. It Nommmdnv, Ci. Normurodova; rets. S. K. Karimov, H. Nairn-v, O '/In kiston Kespulifikasi Oliy va o'rta-maxsas ta'lif vazirligi. - Toshkent: lulitkur, 2010 11It



### **Jamiyatdagi transformatsiyalar turli shakllarda bo'lishi mumkin:**

1. Iqtisodiy transformatsiya: Bu jarayon, iqtisodiy tizimdagagi o'zgarishlar, masalan, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, resurslarni taqsimlash tizimining yangilanishi yoki iqtisodiy strukturalarning modernizatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy islohotlar ko'pincha davlatning iqtisodiy siyosati va global iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq.

2. Siyosiy transformatsiya: Siyosiy tizimdagagi o'zgarishlar, hukumat shakllarining va boshqaruv tizimlarining o'zgarishi, yangi siyosiy partiyalar yoki ideologiyalarning shakllanishi orqali amalga oshadi. Bu jarayonlar ko'pincha siyosiy inqiloblar, davlat inqirozlari yoki siyosiy islohotlar bilan bog'liq.

3. Madaniy transformatsiya: Madaniy tizimdagagi o'zgarishlar, yangi qadriyatlar, an'analar, ta'lif va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yuzaga keladi. Bu, asosan, jamiyatning madaniy normalarining va qadriyatlarining o'zgarishini anglatadi. Madaniy transformatsiyalar ko'pincha globalizatsiya, yangi texnologiyalar va madaniy almashuvlar ta'sirida sodir bo'ladi.

4. Ijtimoiy transformatsiya: Ijtimoiy tizimdagagi o'zgarishlar, ijtimoiy qatlamlarning o'zgarishi, ijtimoiy tenglik va adolatga bo'lgan yangi talablar orqali amalga oshadi. Bu jarayonlar ko'pincha gender, etnik va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi.<sup>4</sup>

### **Sotsiologik transformatsiya va globalizatsiya.**

Globalizatsiya jarayoni sotsiologik tizimlarda katta transformatsiyalarga olib kelmoqda. Global miqyosda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, iqtisodiy integratsiya va madaniy almashuvlar jamiyatlarning strukturasiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, globalizatsiya ijtimoiy tenglik va adolatga bo'lgan talablarni kuchaytiradi, chunki odamlar bir-biridan yanada yaqinroq va bir-biriga bog'liq bo'lib qoladi. Sotsiologik transformatsiyaning natijalari: Sotsiologik tizimdagagi transformatsiyaning ijobjiyva salbiy natijalari bo'lishi mumkin. Ijobjiy natijalar jamiyatda yangi imkoniyatlar, yaxshilangan iqtisodiy holat, siyosiy barqarorlik va madaniy yangilanishni o'z ichiga oladi. Salbiy natijalar esa, ijtimoiy beqarorlik, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar, iqtisodiy notenglik yoki madaniy ziddiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Globalashuv milliy iqtisodiyotni va tarixiy-madaniy boyliklar pluralizmini rad etmaydi. Har qanday o'zgarish milliy zaminga, tajribaga tayanganida ijobjiy natjalarga olib keladi. Globalashuv to'lqinlari qanchalik kuchli bo'lmisin milliy-madaniy an'analarning, milliy iqtisodiyotining o'z xususiyatlarini asrab qolishga ishtiyoqi ham shuncha

<sup>4</sup> <https://uz.wikipedia.org/>



kuchlidir. Shuning uchun ham taniqli tadqiqotchilar P.Berger va R.Xantington “Turfa globalizatsiya” degan tushunchani iste’molga kiritishadi.<sup>5</sup>

### **Transformatsiya jarayonlari va ularning ta’siri.**

**Ijobiy va salbiy ta’sirlar.** Transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotda ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Yangi texnologiyalar, innovatsion g’oyalari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy o’sishni tezlashtiradi. Misol uchun, O’zbekistonda qishloq xo’jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlik 30% ga oshdi. Biroq, bunday jarayonlar ayrim ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, ish o’rinlarining yo’qolishi va ijtimoiy tengsizliklarni muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

**Ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar.** Ijtimoiy sohada transformatsiya jarayonlari xalq farovonligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Misol uchun, urbanizatsiya jarayonlari natijasida qishloq joylaridan shaharlarga ko’chish odamlarning ijtimoiy muhitini o’zgartiradi va qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2021 yilda O’zbekistonda 15% aholi shahar hududlarida yashashga o’tdi, bu ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Shunday qilib, transformatsiya jarayonlari iqtisodiyot va jamiatga bir vaqtning o’zida ijobiy va salbiy ta’sir ko’rsatadi.

### **Kelajakdagi transformatsiya tendensiyalari.**

**Umumiyoq ko’rinish.** Kelajakdagi transformatsiya tendensiyalari jamiatning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu tendensiyalar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o’zgarishlarni keltirib chiqaradi.

**Innovatsiyalar va texnologiyalar.** Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar kelajakdagi o’zgarishlarni tezlashtiradi. Ular yangi imkoniyatlar yaratib, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

### **Ijtimoiy-madaniy o’zgarishlar.**

- O’zaro bog’lanish va globalizatsiya
- Madaniy diversifikatsiya
- Raqamli madaniyatning o’sishi
- Yoshlar va ularning roli

**Xulosa.** Xulisa qilib aytganda umuman olganda, O’zbekistondagi iqtisodiy o’zgarishlar sotsial madaniy transformatsiya bilan chambarchas bog’liq. Iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar va barqarorlik mamlakatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sotsiomadaniy tizimdagi transformatsiyalarni muhim jihatlari ko’rib chiqildi. Birinchidan, transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimidan boshlab, ijtimoiy va

<sup>5</sup> O‘quv-uslubiy majmua.-Toshkent: O’zROO‘MT vazirligi, 2011.26b



iqtisodiy sohalarga qadar keng tarqalgan. Bunday jarayonlar ijtimoiy tengsizlikni yanada oshirish yoki kamaytirish kabi turli ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya kuchayishi, madaniy o'zgarishlarga sabab bo'limoqda. Ushbu o'zgarishlar, o'z navbatida, kelajakda ijtimoiy dinamika va madaniy evolyutsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Uchinchidan, kommunikatsiya va hamkorlik jarayonlarida muhim rol o'ynaydi, bu esa transformatsiyalarni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu masalalar bo'yicha ko'proq ma'lumot va misollar keltirish orqali, sotsiomadaniy transformatsiyalarni yanada chuqurroq tushunishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. J. G. Sherbutayevna Sotsiologiya tarixi /darslik/. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 466 b.
2. O'quv-uslubiy majmua.-Toshkent: O'zROO'MT vazirligi, 2011.26b
3. Yusupxodjayeva G.B Iqtisodiy sotsiologiya. Darslik – T.:2023- 303 b.
4. Sotsiologiatarixi. XIX-XX asr. [Text]: o'quv qomInnmit / It Nommmdnv, Ci. Normurodova; rets. S. K. Karimov, I II. Nairn-v, O '/In kiston Kcspublikasi Oliy va o'rta-maxsas ta'lim vazirligi. - Toshkent: Iulitkkur, 2010 11lt

### **Axborot manbalari**

1. <https://uz.wikipedia.org/>
2. <https://uz.wikipedia.org/>